

**BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/27.02.2021.FM.101.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA TUZILGAN
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

ADIZOVA AZIZA JO'RAQULOVNA

**QOVUSHQOQ-ELASTIKLIK NAZARIYASI ASOSIDA IPLARNING
MEXANIKAVIY PARAMETRLARINI ANIQLASH**

01.02.04 – Deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasi

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2025

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**

**Contents of the dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on
Technical Sciences**

Adizova Aziza Jo‘raqulovna

Qovushqoq-elastiklik nazariyasi asosida iplarning mexanikaviy parametrlarini
aniqlash..... 3

Адизова Азиза Журакуловна

Определение механических параметров нитей на основе теории
вязкоупругости..... 21

Adizova Aziza Jurakulovna

Determination of mechanical parameters of filaments based on the theory of
viscoelasticity..... 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 43

**BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/27.02.2021.FM.101.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA TUZILGAN
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

ADIZOVA AZIZA JO'RAQULOVNA

**QOVUSHQOQ-ELASTIKLIK NAZARIYASI ASOSIDA IPLARNING
MEXANIKAVIY PARAMETRLARINI ANIQLASH**

01.02.04 – Deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasi

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2025

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.3.PhD/T1644 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro muhandislik-texnologiya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) institut veb-saytida (www.bmti.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Mavlanov Tulkin

texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar:

Mardonov Botir Mardonovich

fizika-matematika fanlari doktori, professor

Ismayilov Kubaymurat

texnika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Toshkent kimyo-texnologiya instituti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro muhandislik-texnologiya instituti huzuridagi PhD.03/27.02.2021.FM.101.02 raqamli Ilmiy kengash asosida tashkil qilingan bir martalik Ilmiy kengashning 2025-yil 23-may soat 15⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100118, Buxoro shahar, Qayum Murtazoyev ko'chasi 15-uy. Tel.: (+99865) 223-78-84; faks: (+99865) 223-79-72, e-mail: bmti_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro muhandislik-texnologiya institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 361 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100118, Buxoro shahar, Qayum Murtazoyev ko'chasi 15-uy. Tel.: (+99865) 223-78-84;).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 8-may kuni tarqatildi.

(2025-yil 10 apreldagi № 1 raqamli reyestr bayonnomasi).



M.X. Teshayev

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy kengash raisi, fizika-matematika fanlari doktori, (DSc)

Z.I. Boltayev

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy kengash ilmiy kotibi, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

B.S. Raxmonov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy kengash qoshidagi bir martalik Ilmiy seminar raisi, texnika fanlari doktori (DSc)

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ishlab chiqarishning turli sohalarida har xil tolalardan, jumladan, tabiiy, sintetik, polimer tolalaridan tashkil topgan kompleks ip keng qo'llanilishi muhim o'rin egallamoqda. Dunyo miqyosida xususiyatlari oldindan berilgan iplarni tayyorlash, qayta ishlash va ularni ishlab chiqarishga qo'llash muhim ahamiyat kasb etib, buning uchun kompleks iplarning fizik va mexanik xususiyatlarini to'liq o'rganishni taqozo etadi. Shu jihatdan, butun texnologik jarayon mobaynida iplarga turli ko'rinishdagi kuchlar ta'siridan iplarning shikastlanishlarini aniqlashda ularning reologik xususiyatlarini hisobga olish, olinadigan mahsulotlarning sifat ko'rsatkichlarini hamda ishlatish muddatlarini uzaytirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni tashkil etish, uning iste'moli hamda eksporti, sifatini oshirishga asoslangan innovatsion yo'nalishlar bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, bugungi "... kunda tabiiy tolalardan ishlab chiqariladigan mahsulotlarga nisbatan ishlab chiqarish samaradorligi ikki marta yuqori bo'lgan sun'iy tolalarni hamda sun'iy tolalardan to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni tashkil etish, shuningdek, trikotaj-tikuvchilik sanoatini innovatsion rivojlantirishda "aqlli" to'qimachilik matolarini yaratish, elektron to'qimachilik matosi, faol mato, shuningdek, antimikrob mato yaratishga asoslangan innovatsion yo'nalishlar bo'yicha ilmiy tadqiqotlar..."¹ olib borishga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda to'qimachilik sanoati O'zbekiston milliy iqtisodiyotining eng jadal rivojlanayotgan tarmog'iga, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va mahsulotlarni eksport qilish bo'yicha yetakchiga aylanishi mamlakat iqtisodiyotida yengil sanoatning roli sezilarli darajada oshib, muayyan natijalarga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonida, jumladan, "... ilmiy va ilmiy-texnikaviy rivojlanishni prognozlash: ilmiy va texnologik rivojlanishni prognozlashning tizimli jarayoni mahalliy va jahon miqyosidagi ilmiy hajmdor mahsulotlar ishlab chiqaruvchilari tomonidan talab qilinadigan ilmiy tadqiqotlar to'g'risidagi ma'lumotlarni shakllantirish..."² va 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonidagi "Innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun barcha yo'nalishlarda keng imkoniyatlarni yaratish, tadqiqotlarni va innovatsion tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashning zamonaviy mexanizmlarini joriy qilish"³ bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, to'qimachilik sohasida samarali ilmiy natijalarga erishishda qovushqoq-elastiklik nazariyasi asosida iplar uchun matematik modellar yaratish hamda bu modellarga kiruvchi mexanikaviy parametrlarni aniqlash usullarini takomillashtirish muhim ahamiyat

¹ <https://zenodo.org/records/5675967>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni (52-maqсад)

kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-dekabrda PQ-4077-son “Ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish, sanoat tarmoqlarini texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash jarayonini jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, 2020-yil 5-maydagi PF-5989-son “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini qo‘llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni, 2022-yil 21-yanvardagi PF-53-son “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida chuqur qayta ishlash va yuqori qo‘shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni hamda ularning eksportini rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida berilgan “To‘qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga ko‘paytirish”⁴, 2024-yil 1-maydagi PF-71-sonli “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, shuningdek, ushbu faoliyatga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining IV. “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo‘nalishlariga mos ravishda bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi.

Ideal ip mexanikasining ilk tadqiqotchilari sifatida odatda XVIII-XIX asr olimlari Y.Bernulli, L.Eyler, Sh.Kulon, J.Lagranj, Sen-Venan, G.Kirxgof, A.Klebsh kabi olimlar ko‘rsatilib, ular ingichka sterjenlar va biki iplar mexanikasi masalalarini qayishqoqlik nazariyasining umumiy tenglamalari asosida tadqiq qilganlar. XIX asr oxiri va XX asr boshida A.Lyav, Y.L.Nikolay, G.Kamel kabi olimlar ingichka sterjenlar statikasi va kichik tebranishlari masalalarini tadqiq qilishgan.

Chiziqli qayishqoq iplar va ingichka sterjenlar kinematikasi va dinamikasi masalalari XX asr o‘rtalarida Y.P.Popov, G.Y.Djanelidze, A.L.Stasenko, V.A.Svetliskiy, X.Lorents kabi olimlar tadqiqotlarining mavzulari bo‘ldi. Egilishda qayishqoq ipning mutlaq biki silindr bilan ta’sirlashuvi masalalari XX asr o‘rtalarida V.S.Jivov, I.I.Migushov, A.P.Minakov, V.P.Poluxin, I.S.Zak, V.M.Nikiforov va G.Kamel asarlarida tadqiq qilingan. To‘qimachilik jarayonlarida iplarning kuchli egilishi Y.D.Efremov, V.S.Jivov kabi olimlarning tadqiqotlarida XX asr oxirlarida tadqiq qilingan. Shu vaqtda N.I.Kudryashova, B.A.Kudryashov va boshqa olimlar to‘qimachilik iplari qayishqoqlik xususiyatlari nochiqli ekanligini hisobga olish zarurligini ko‘rsatadilar va bu masala I.I.Migushov asarlarida o‘zining eng to‘liq yechimini topdi.

Buralish va egilishda qayishqoq ip mexanikasining turli nazariy va amaliy masalalari S.G.Zaretskas, V.M.Kagan, D.F.Artur va A.F.Veller, X.Doysen, A.N.Dinnik tadqiqotlarida hal qilingan.

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni (22-maqсад)

Xullas, asrimizning boshiga kelib ip mexanikasining statik, kinematik va dinamik masalalari ancha yaxshi o'rganilgan bo'lib, A.P.Minakov, V.G.Shedrov, V.A.Svetliskiy, I.I.Migushov, Y.V.Yakubovskiy, S.Jivov va Y.I.Koritisskiy, R.Meredit va Dj.V.S.Jerl kabi olimlarning asarlarida o'zining umumlashgan ifodasini topgan bo'lsa, bunda o'zbek olimlari X.A.Raxmatullin va M.T.O'rozboyevlarning, shuningdek, TTYSI professorlari G.N.Boldinskiy, M.Ergashovlarning ip dinamikasi bo'yicha bajargan tadqiqotlari bilan qo'shgan hissalarini beqiyosdir va biz bu bilan haqli ravishda faxrlanishimiz mumkin.

Professor T.Mavlanov rahbarligida keyingi o'n yillikda bajarilgan ip mexanikasiga oid bir turkum tadqiqotlar bu sohaning rivojiga salmoqli hissa bo'ldi. Bu asarlarda ip va mato mexanikasining hozirgi zamon texnologiyasi uchun eng dolzarb qator masalalari o'z yechimini topdi. Shuningdek, K.S.Sultanov, S.I.Ismailova, G.B.Abdiyevlarning chop etgan maqolalari iplar mexanikasining rivojida o'z o'rnini topgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur tadqiqot Buxoro muhandislik-texnologiya institutining "Vobkent Tola Klaster" MChJ korxonasi bilan 11.02.2021 yildan 31.12.2022 yilgacha mo'ljallangan 5-21 sonli xo'jalik shartnomasi asosida "Ip yigiruv korxonalarida ipning uzilishini kamaytirish va sifat ko'rsatkichlarini baholash" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Murakkab texnologik jarayonda ishlayotgan iplarning kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holatini modellashtirish va shu modellarga mos keluvchi matematik modellar yaratish, ularga kiruvchi parametrlarning ratsional qiymatlarini aniqlash, iplarning qovushqoq-elastiklik xususiyatlarini bashoratlash hamda xossalari oldindan berilgan yangi materiallar yaratish.

Tadqiqotning vazifalari:

har xil tarkibli iplarga yuklanishning ta'sirini aniqlash va uning oquvchanligini tekshirish;

yuklash rejimini iplarning qovushqoq-elastiklik xususiyatiga hamda uning texnologik jarayonga ta'sirini aniqlash;

qovushqoq-elastiklik nazariyasi asosida iplar uchun matematik modellar yaratish va bu modellarga kiruvchi parametrlarni aniqlash usullarini takomillashtirish;

tajribalar natijasida qurilgan oquvchanlik va relaksatsiya egri chiziqlarini approssimatsiyalash usullarini takomillashtirish hamda iplarning qovushqoq-elastiklik xossalari bashoratlash;

iplarning qovushqoq-elastiklik xususiyatlarini aniqlovchi ta'sir funksiyalarini qurish va ularga kiruvchi parametrlarni aniqlash uslubiyatini takomillashtirish;

qovushqoq-elastiklik nazariyasi asosida iplar dinamikasini o'rganish;

iplar mexanikasining amaliy masalalarini yechish.

Tadqiqotning obyektini sifatida paxta va aralash tolali turli fizik-mexanik xususiyatlarga ega bo'lgan iplar olingan.

Tadqiqotning predmeti iplarning reologik xususiyatlarini hisobga olib, ularning nochiziqli deformatsiyalanishini baholash, matematik modellarini

takomillashtirish hamda hisoblash usullarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot usullari. Eksperimental relaksatsiya va oquvchanlik egri chiziqlaridan foydalanib, matematik modelga kiruvchi to'rt parametrli yadro koeffitsiyentlarini M.A.Koltunov usuli yordamida aniqlash, iplar dinamikasini aniqlovchi jarayonlarni modellashtirish, differensial va integro-differensial tenglamalarni "muzlatish" usullari yordamida yechish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

kuchlanish-deformatsiya-vaqt analoglari prinsiplarini rivojlantirish natijasida hamda oquvchanlik egri chiziqlarini o'xshashlik gipotezasiga ko'ra ipning kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holati matematik modellashtirilgan;

ilk bora iplar uchun qurilgan matematik modelga ta'sir funksiyasining yadrosi sifatida kiritilgan umumiy xarakterga ega bo'lgan tajribalar asosida osonlik bilan aniqlanadigan to'rt parametrli yadrodan foydalanish mumkinligi aniqlangan;

iplarning mexanik xususiyatlarini to'rt parametrli yadro orqali ifodalashdagi natijalar uch parametrli Koltunov-Rjanitsin yadrosi orqali olingan natijalardan aniqlik darajasi 12% gacha yuqori bo'lishi topilgan;

qovushqoq-elastiklik xususiyatlariga ega bo'lgan iplarining bo'ylama, ko'ndalang va buralma tebranma harakatlarining integro-differensial tenglamalari olingan va bu tenglamalarni yechish metodikasi takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

iplarning qovushqoq-elastiklik xususiyatlarini ifodalash uchun Bolsman-Volterning qovushqoq-elastiklik nazariyasidan va bu nazariyani nochiziqlik xususiyatlarini hisobga olgan holda A.A.Ilyushin tomonidan rivojlantirilgan nazariyadan foydalanish imkoniyatlariga asoslangan;

iplarni qovushqoq-elastiklik, nochiziqlik, nostabillik xususiyatlarini hisobga olishni bashorat qilish va baholashni hisoblash matematik modeli ishlab chiqilgan;

turli dinamik kuchlar ta'siridagi iplarning tebranishlarini ifodalovchi integro-differensial tenglamalar sistemasini yechish usullari taklif etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Ishlab chiqilgan modellar, hisoblash usullari sonli va analitik yechimga ega bo'lgan ma'lum modelli masalalarning yechimlari bilan taqqoslangan. Har bir ko'rilgan masalada talab etilgan aniqlik darajasigacha natijalar solishtirilib, ishlab chiqilgan usullar yechimi aniq bo'lgan modelli masalalar natijalariga yuqori aniqlikda mos kelishi tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Olingan tadqiqot natijalarining nazariy ahamiyati iplarning qovushqoq-elastiklik, nostabillik va nochiziqlik xususiyatlarining nazariy asosi va matematik modellar iplar mexanikasini rivojlantirish bilan izohlanadi.

Ishning amaliy ahamiyati esa iplarning qovushqoq-elastiklik, nostabillik va nochiziqlik xususiyatlarining ta'sirini hisobga olgan holda, ularga dinamik kuchlar ta'sir etganda sistemaning mustahkamligini, sifatli mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlovchi optimal parametrlarni aniqlash bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qovushqoq-elastiklik nazariyasi asosida iplarning mexanikaviy parametrlarini aniqlash bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy natijalar asosida:

ipda hosil bo'ladigan deformatsiyani vaqt birligi ichidagi o'zgarish qonuniyati,

yuklanishlarning har xil tezliklarda amalga oshirilishida ip va to‘qimaning qovushqoqlik-elastiklik xususiyatlarini aks ettiruvchi mexanik parametrlarini tezkorlik bilan aniqlash usullari “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi tarkibiga kiruvchi Buxoro viloyatidagi “Mergan Teks” MChJ va “Kamalak Shabnam Teks” MChJ (Buxoro viloyatidagi “Mergan Teks” MChJ korxonasi 27.10.2023-yildagi ma’lumotnomasi va “Kamalak Shabnam Teks” MChJ korxonasi 24.11.2023-yildagi ma’lumotnomasi) korxonalarida paxta va sintetik tolalardan tashkil topgan ip ishlab chiqarishda joriy etilgan. Natijada, qovushqoqlik xususiyatini hisobga olib, iplardagi ko‘chish hamda kuchlanishlarning 10-12 % kamayishiga va ular harakatining stabillashiga, shuningdek, iplarning mustahkamligi va gazlamalarning yuza sirti tekisligi hamda ishqalanishga chidamlilik ko‘rsakichlarining 5-8 % oshishiga erishilgan;

materialning anizotrop va nostabillik xususiyatlarini aniqlashda qovushqoqlik-elastiklik nazariyasi asosida ilmiy ishda tavsiya etilgan integral modellaridan, ishlab chiqarish jarayonida tashqi va ichki kuchlar ta’siridagi ipning tebranma harakatini xarakterlovchi barcha parametrlarini, jumladan, tebranma harakat amplitudasi, chastotasi va kuchni aniqlashda ilmiy ishda keltirilgan formulalardan “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi tarkibiga kiruvchi Buxoro viloyatidagi “Al-Hakim Plyus” MChJ (“Al-Hakim Plyus” MChJ korxonasi, 26.12.2023-yildagi ma’lumotnomasi) korxonasi tabiiy va polimer tolalardan tashkil topgan iplarning fizik-mexanik ko‘rsatkichlarini oshirishda foydalanildi. Natijada, ip va to‘qimaning tebranma harakati uning qovushqoqlik xususiyatini hisobga olishlik to‘qimada hosil bo‘ladigan tebranma harakat amplitudasining kamayishi hisobiga tebranma harakat stabillashadi hamda ipda hosil bo‘ladigan taranglik kuchi 12-16 % ga kamayish imkonini bergan.

Dissertatsiya ishi bo‘yicha tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi tomonidan 03.07.2024-yildagi № 03/25-1631 ma’lumotnomasi olingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 26 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, jumladan, 3 tasi Respublika va 6 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 100 betni tashkil etadi.

Muallif dissertatsiya ishida keltirilgan nazariy va tajribaviy tadqiqotlarni o‘tkazishda o‘zining qimmatli maslahat va yordamlari uchun t.f.f.d.(PhD), dots. G.B.Abdiyevaga chuqur minnatdorchiligini bildiradi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya tadqiqotining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari hamda obyekt va predmetlari, O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyasi taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari

bayon qilingan. Olingan tavsiflangan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Qovushqoq-elastiklik nazariyasi asosida iplarning mexanikaviy parametrlarini aniqlashga bag'ishlangan adabiyotlar tahlili”** deb nomlangan **birinchi bobida** qovushqoq-elastiklik nazariyasi asosida iplarning mexanikaviy parametrlarini aniqlashga bag'ishlangan adabiyotlarning qisqacha tahlili keltirilgan.

Adabiyotlar tahlili asosida xulosalar qilingan: ip tarangliklarining ratsional parametrlarini aniqlash va iplarning qovushqoqlik xususiyatini hisobga olib jarayonlarni modellashtirish metodikasini takomillashtirish yetarli emas; iplarning kuchlanish va deformatsiya holati vaqtga uzviy bog'liqdir. Bu bog'liqlik ko'p faktorli bo'lib, asosan, nochiziqlilik xususiyatiga ega bo'ladi. Iplar deformatsiyalanganligi va qovushqoq-elastiklik xususiyatiga ega bo'lganligi tufayli, ular uchun nochiziqli qovushqoq-elastiklik nazariyasini qo'llash taklif etilgan.

Shunday qilib, murakkab strukturaga ega bo'lgan iplar ishlab chiqarish jarayonida tashqi kuchlarning ta'sirida strukturaviy ichki o'zgarishlarni hisobga olishda qovushqoq-elastiklik nazariyasidan foydalanishni taqozo etganligi sababli, ushbu nazariyadan foydalanish uchun jarayonni ifodalaydigan matematik modellar qurish va qurilgan bu modellarga kiruvchi parametrlarni aniqlash usullarini ishlab chiqish muhim masala ekanligi ko'rsatilgan.

“Iplarning mexanikaviy-matematik modellari va ularga kiruvchi parametrlarni aniqlash metodikasi” deb nomlangan **ikkinchi bobida** texnologik jarayonda ishtirok etayotgan iplarning kuchlanish-deformatsiya holatlarini matematik modellashtirish hamda matematik modellarga kiruvchi parametrlarni aniqlash usullari keltirilgan.

“Eng sodda modellar” deb nomlangan birinchi paragrafda har qanday jism yoki fizikaviy obyektning deformatsiyalanish jarayoni murakkab bo'lib, ularni analitik ko'rinishda ifodalash bir qator muammolarni, jumladan, qaralayotgan obyektning fizik va mexanikaviy xarakteristikalarini to'liq aniqlash, oldindan qo'yilgan talablarga javob bera oladigan yangi konstruksiyalarni loyihalash hamda qaralayotgan obyektlarning ba'zi xususiyatlarini tajriba orqali aniqlash mumkin bo'lmagan xarakteristikalarini modellashtirish orqali aniqlash uchun bir nechta modellar (Maksvell modeli, Foygt modeli, Kelvin modeli, to'rt elementli model va Uchta komponentli Kelvin-Foygtning umumlashgan modeli) haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

“Iplar uchun yadro parametrlarni aniqlashning usullari” deb nomlangan ikkinchi paragrafda tavsiya etilgan modellarni va bu modellarga kiruvchi yadrolarning avfzalliklari, ularga kiruvchi parametrlarni aniqlash usullari keltirilgan. Ishda qabul qilingan Bolsman yadrosi materialning o'tmishini hisobga oladi. Kelvin, Foygt, Maksvell modellari ham Bolsman-Volterning modellarining xususiy holi sifatida kelib chiqadi. Shunga asosan, umumiy holda iplar uchun, chiziqli holda, Bolsman-Volterning integral munosabatlaridan foydalanildi. Bunda, yadro tajribalar orqali yoki tanlash orqali amalga oshiriladi. Masalan, uch parametrli yadro uchun S.D.Nikolayev tomonidan yadro parametrlarini va elastiklik modulini aniqlashning

taqribiy formulalari taklif etilgan. Bunga asosan, oquvchanlik egri chizig'i qurilgandan so'ng egri chiziqning to'rtta nuqtasi tanlanadi va kichik kvadratlar usulini qo'llab, yadro parametrlarini aniqlashning taqribiy formulalari taklif etilgan. Bu formulalar quyidagi ko'rinishga ega:

$$\begin{aligned}
 A &= \frac{\alpha(\alpha+1)(\sigma_1 - \sigma_2)}{\sigma_1(\alpha+1)(t_2^\alpha - t_1^\alpha) + (\sigma_1 - \sigma_2)t_1^\alpha}; \\
 \beta &= \frac{\sigma_4 - \sigma_1 + EA\varepsilon\left(\frac{t_4^\alpha - t_1^\alpha}{\alpha}\right)}{EA\varepsilon\left(\frac{t_4^{\alpha+1} - t_1^{\alpha+1}}{\alpha+1}\right)}; \\
 t_1^\alpha(\sigma_2 - \sigma_1) - t_2^\alpha(\sigma_1 - \sigma_3) + t_3^\alpha(\sigma_1 - \sigma_2) &= 0; \\
 E &= \frac{\sigma_1\alpha(\alpha+1)}{\varepsilon[(\alpha+1)\alpha - At_1^\alpha]}.
 \end{aligned}
 \tag{1}$$

Olib borilgan tahlillar, tajriba va sonli tajribalar shuni ko'rsatib turibdiki, Nikolayev taklif etgan yuqoridagi formulalar aniqlik nuqtayi nazardan qo'yilgan talablarni qanoatlantirmaydi. Shuning uchun ham, yuqori aniqlikda natijalar olish uchun, murakkablik darajasiga qaramasdan, uch parametrlilik yadro va unga kiruvchi parametrlarni aniqlash usulini ishlab chiqqan Koltunov metodidan foydalanishni taklif etamiz.

1-jadvalda paxtali ip, poliester va aralash tolali iplar uchun yadro parametrlari hamda elastiklik modullarining ikki xil usul: S.D.Nikolayev va M.A.Koltunov metodlari bilan aniqlangan qiymatlari keltirilgan.

M.A.Koltunovning logarifmik moslik usulidan V.I.Sherbakov va T.Mavlanovlar keng foydalanganlar hamda turli iplar uchun yadro parametrlarini aniqlaganlar.

1- jadval

**Turli iplar uchun yadro parametrlari va elastiklik modulining
S.D.Nikolayev va M.A.Koltunov metodlari bilan aniqlangan qiymatlari**

Iplarning turlari	A		α		β	α		E, MPa	
	H	K	H	K	H	K	H	K	
Paxta	0,106	0,123	0,0366	0,045	0,276	0,125	1420,49	1 494,92	
Poliester	0,070	0,086	0,0326	0,038	0,451	0,223	8 365,46	8 166,48	
Aralash tolali ip	0,099	0,067	0,0383	0,052	0,467	0,254	4 019,74	3 714,66	

Elastiklik moduli o'zgarmas kattalik bo'lgan ba'zi hollarda quyidagi to'rt parametrlilik yadrodan foydalanish mumkin bo'ladi:

$$\Gamma(t - \tau) = \frac{Ae^{-\beta(t-\tau)}}{T^q(t-\tau)^p},$$

Bunda A – qovushqoqlik yadrosining amplitudasi; T – boshlang'ich taranglik; p va q – qovushqoqlik yadrosining parametrlari.


Bu ifodadagi T , A , q va p kattaliklar ipning xususiyatlarini tavsiflovchi parametrlar hisoblanib, ular tajriba orqali aniqlanadi. Agar ip o'zgarmas kuch ta'siri ostida bo'lsa, ipning kuchlanish va deformatsiyasi orasidagi bog'liqlikni quyidagi

ko‘rinishda ifodalash mumkin:

$$\varepsilon(t) = \frac{\sigma}{E} \left[1 + \frac{A}{T^q} \int_0^t \frac{e^{-\beta(t-\tau)}}{(t-\tau)^p} d\tau \right]$$

Ma'lumki, ipni kompozit material deb qarab, uning xususiyatlarini o‘rganishda qovushqoq-elastiklik nazariyasiga asoslanish kerak. Bunda tenglamaga kiruvchi parametrlar M.A.Koltunov metodidan foydalangan holda tajribalar natijasida olinib, Ne30 ip uchun parametrlarning quyidagi qiymatlari qabul qilingan:

$$A=0,096; T=10 \text{ sN}; p=0,64; q=0,36; \alpha=1,25; \beta=0,005$$



1-rasm. Uch parametrlil (1) va to‘rt parametrlil (2) yadrolar orqali aniqlangan natijalar hamda tajriba (3) natijalari uchun deformatsiya o‘zgarish grafiklari

Deformatsiyaning vaqt birligi ichidagi o‘zgarish grafigi 1-rasmda keltirilgan. Olingan natijalar shuni ko‘rsatib turibdiki, iplarning mexanik xususiyatlarini to‘rt parametrlil yadro orqali ifodalash uch parametrlil yadroga nisbatan tajribalar natijasida olingan natijalarga nisbatan yaqin bo‘ladi. Bunday yaqinlik 2-3 % ni tashkil etadi. Uch parametrlil yadro bilan to‘rt parametrlil yadroni tajribadan farqlilik foizi mos ravishda 15 % va 3% ni tashkil etadi. Iplarning tarkibiy qismlari o‘zgartirilishi natijasida, zarur talablarga javob beradigan, shu jumladan, ip sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi turli omillarni ishlab chiqish imkoniyati vujudga keladi.

“Modellarga kiruvchi ta’sir funksiyani tanlash va ularning parametrlarini aniqlash” deb nomlangan uchinchi paragrafda yuqoridagi formulalarga kiruvchi ta’sir funksiyani tanlash va ularning parametrlarini aniqlash usullari keltirilgan. O‘tkazilgan nazariy va eksperimental tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, ushbu funksiyalar quyidagi shartlarni qanoatlantirishi lozim:

1. $t=0$ bo‘lganda, $\Gamma(t)$ funksiyaning qiymatlari juda katta bo‘lishi lozim.
2. $[0, t]$ oraliqda $\Gamma(t)$ funksiya bo‘yicha olingan integrallar yaqinlashishi lozim.
3. $[0, t]$ oraliqda $\Gamma(t)$ funksiya bo‘yicha olingan integral 1 dan kichik bo‘lishi lozim.

Ishda yuqoridagi shartlarni qanoatlantiruvchi funksiya sifatida Rjanitsin-Koltunov tomonidan taklif qilingan

$$\Gamma(t) = A \exp(-\beta t) / t^{1-\alpha}$$

uch parametrlil yadro o‘rniga takomillashtirilgan to‘rt parametrlil yadro funksiyasi qabul qilingan.

1-rasmda turli yadrolar tajribaviy yadro bilan taqqoslangan. Shu sababli, keyingi tadqiqotlarimizda obyektning xossalarini to‘liq o‘rganish maqsadida takomillashtirilgan to‘rt parametrli Rjanitsin-Koltunov yadrosini qo‘llashni ma’qul ko‘rdik. Ishda Ne30 ipi uchun olingan natijalar misolida Koltunov yadrosini qo‘llashning Nikolayev yadrosiga nisbatan afzalligi sinov masalasi sifatida ko‘rsatib berilgan. Taqqoslash natijalaridan ko‘rinib turibdiki, to‘rt parametrli yadroni qo‘llash natijalari tajribaviy egri chiziqlar bilan deyarli ustma-ust tushadi.


Tajribalar turli kuchlanishlarda ham o‘tkazilgan. Ushbu tajribalar natijalaridan foydalanib, kuchlanishning vaqt birligi davomidagi o‘zgarish grafiklarini tuzamiz (2-rasm). Tajriba natijalari shuni ko‘rsatadiki, bu egri chiziqlar tarqoqligi 5 % dan kam bo‘lgan ma’lum bir dastani hosil qiladi. Demak, $0 \leq \sigma \leq 0,2\sigma_B$ kuchlanishlar oralig‘ida ($\sigma_B = 764,96$ MPa – ip uzilgandagi kuchlanish) ip chiziqli xarakterga ega va bu ip uchun chiziqli modeldan foydalanish mumkin. Masala $\Gamma_{\alpha, \beta}(t)$ to‘liq bo‘lmagan funksiyaning A, α, β qiymatlarini aniqlashga olib kelinadi.

$$F(x, t) = E \left(1 - A \int_0^t I^{-\beta} s^{\alpha-1} ds \right) = E \left(1 - \Gamma_{\alpha, \beta}(t) \right) \quad (2)$$

Ushbu formulani minimizatsiyalash yo‘li bilan iplarning mexanik parametrlarini yetarli darajadagi aniqlikda aniqlash mumkin. Yuqoridagi masalani ushbu usul yordamida yechish natijasida parametrlarning quyidagi qiymatlari topildi:

$$A=0,02716; T= 10 \text{ sN}; q=0,36; p=0,64; \alpha=0,0754; \beta=0,0043.$$

Masalaning bunday usulda yechilishi yetarli qulaylik va aniqlikka ega.



2-rasm. Vaqt birligida kuchlanishning o‘zgarish grafiklari

$\sigma_r(t)$ – Rjanitsin-Koltunov yadrosining egri chizig‘i; $\sigma_e(t)$ – eksperimental egri chizig‘i;
 $\sigma_g(t)$ – Rabotnov yadrosining egri chizig‘i; $\sigma_p(t)$ – darajali funksiyaning egri chizig‘i.

“Iplarning nostabillik xususiyatini hisobga oluvchi matematik modellari va ularga kiruvchi parametrlarini aniqlash” deb nomlangan to‘rtinchi paragrafda qovushqoq-elastiklik nazariyasi tenglamalarining nostabillik xususiyatlarini hisobga oluvchi modellar tavsiya etish va ularga kiruvchi parametrlarni aniqlash masalasi ko‘rilgan. Kuchlanish va deformatsiya orasidagi bog‘lanishni

$$\sigma(t) = E\varepsilon(t) - E \int_0^t W(t, \tau)\varepsilon(\tau)d\tau \quad (3)$$

ko‘rinishda qabul qilamiz. Bu yerda W – vaqtning funksiyasidan iborat temperatura, namlik va h.k. ifodalovchi parametr.

Agar W deformatsiyalanish jarayonida o‘zgarmasdan qolsa, yadro vaqtlar ayirmasining funksiyasidan iborat bo‘ladi, lekin (3) dan farqli ravishda W parametrga bog‘liq bo‘ladi:

$$\sigma(t) = E(w\varepsilon(t)) - E \int_0^t W(w, t - \tau)\varepsilon(\tau)d\tau \quad (4)$$

(4) ifodaga kiruvchi yadroning ko‘rinishini quyidagicha tanlaymiz:

$$W(w, t - \tau) = A_0(w)\exp(-\beta_0(w)(t - \tau))/((t - \tau)^{1-\alpha}) \quad (5)$$

har xil namliklarda tajribalar o‘tkazib, $E(w), A_0(w), \beta_0(w), \alpha(w)$ funksiyalarni aniqlash mumkin. Buning uchun

$$J(t, w) = J_0(w) + \sum J_\infty(w)[1 - \exp(-ta_T/\tau_n)] \quad (6)$$


funksional bilan aniqlanuvchi ifodani kiritamiz.

Bunda

$$J(t) = \varepsilon(e)/\sigma_0$$

Bu funksionalni qurish, undagi parametrlarni aniqlash usuli *namlik-vaqt analogiyasi* deyiladi. Bu usul orqali tezkor tajribalarni o‘tkazish mumkin.

E, A, α parametrlarning w namlikka bog‘liqligini ifodalovchi egri chiziqlar bo‘lib, ularning tahlili quyidagi grafiklarda keltirilgan (3-rasm):



3-rasm. Qovushqoq-elasticlik parametrlarining namlikka bog‘liqligini ifodalovchi grafiklar

Bu grafiklardan ko‘rinib turibdiki, namlikning o‘zgarishi bilan elasticlik moduli E ma’lum qiymatgacha o‘sadi, parametr A kamayadi, α esa deyarli o‘zgarmaydi.

“Iplarning nochiziqilik xususiyatini hisobga olgan holda modellashtirish” deb nomlangan beshinchi paragrafda katta deformatsiyalarda ipning kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holati nochiziqi bog‘lanishlar orqali ifodalangan. Olingan tajribaviy natijalarga tayangan holda va Bolsman-Volter ishlariga asosan kuchlanish-deformatsiya orasidagi bog‘lanishni

$$\varepsilon_{ij}(t) = \int_0^t K_{1ijkl}(t - \tau)\sigma_{kl}(\tau)d\tau + \int_0^t \int_0^t K_{2ijkl}(t - \tau, t - s)\sigma_{kl}(\tau)\sigma_{kl}(s)d\tau ds + \dots$$

$$\sigma_{ij}(t) = \int_0^t R_{1ijkl}(t - \tau)\varepsilon_{kl}(\tau)d\tau + \int_0^t \int_0^t R_{2ijkl}(t - \tau, t - s)\varepsilon_{kl}(\tau)\varepsilon_{kl}(s)d\tau ds + \dots$$

ko‘rinishda ifodalash mumkin. Bu ifodalarga kiruvchi K va R yadrolar mos ravishda *oquvchanlik va relaksatsiya yadrolari* deyiladi va ular tajribalar orqali aniqlanadi. Xususiyl holda Ilyushinning uchinchi darajali nochiziqilik nazariyasiga asosan yuqoridagi munosabatlardan quyidagi formulani yozish mumkin:

$$\varepsilon(t) = \frac{1}{E} \left[\sigma(t) + \int_0^t K_1(t-s)\sigma(s)ds + b \int_0^t K_2(t-s)\sigma^3(s)ds \right] \quad (7)$$

Bu ifodaga kiruvchi barcha parametrlar tajriba orqali aniqlanadi.


Dissertatsiyaning **“Iplarning mexanikaviy xarakteristikalarini aniqlashning tajribaviy usullari”** deb nomlangan **uchinchi bobida** iplarning mexanik xarakteristikalarini aniqlashning tajribaviy usullari keltirilgan. Tajriba uchun obyekt sifatida “Mergan Teks” mas’uliyati cheklangan jamiyatida Ne30, Ne 40 – paxta va aralash tolali iplar tanlandi. Ulardan namunalar olinib, iplarning mexanik parametrlari Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti CENTEXUZ sertifikatсион laboratoriyasining STATIMAT, TW-3 uskunalarda aniqlandi. Iplarning uzilish kuchi va uzilishdagi cho‘zilishi aniqlangandan keyin navbatdagi tajribalar ipga uzilish kuchidan kam bo‘lgan ($P < 0.6N$) yuklanishlar ostida o‘tkazilgan. Bunda, iplarning cho‘zilishdagi tezliklari har xil qilib olingan.

Tajriba natijasida:

a) Ne 30/1 va Ne 40/1 bo‘lgan iplarning deformatsiyalanishidagi o‘xshashlik va farqlilik xususiyatlari aniqlandi;

b) iplar mustahkamligining miqdoriy ko‘rsatkichlarini taqqoslash orqali ularning umumiylik qonuniyatlari ishlab chiqildi.

Iplarga uzuvchi kuchning 0,1; 0,2; 0,3; 0,4; 0,5 qismlariga teng bo‘lgan yuklar qo‘yilib, oquvchanlikka tajribalar o‘tkazildi va tajriba natijalari 4-rasmda keltirilgan.



4-rasm. Oquvchanlik egri chiziqlari:

1 – 0,1σ_B; 2- 0,2σ_B; 3- 0,3σ_B; 4 – 0,4σ_B; 5 – 0,5σ_B

4-rasmdagi tajriba egri chiziqlardan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Yuklanish tezligi qancha katta bo‘lsa, deformatsiya egri chizig‘i shunchalik yuqorida joylashgan bo‘ladi.

2. Bir xil kuchlanish ta’siridagi ipning oquvchanlik egri chiziqlari vaqtning har xil oraliqlarida har xil bo‘lib, biri ikkinchisiga parallel joylashadi va namuna uzilguncha bunday holatni saqlaydi.

3. Iplarning orqaga qaytmaydigan to‘liq deformatsiyasi yuklanish vaqtining o‘zgarishi bilan kamayib boradi.

4. Oquvchanlik egri chiziqlariga teskari bo'lgan egri chiziqlar yuksizlantirgandan keyin ham o'zaro parallelligicha qoladi.

5. Kichik tezlanishli yuklanishlar ta'sirida kuchlanishning bir xil qiymatlarida iplarning mustahkamligi kamayadi, namuna deformatsiyaning chegaraviy qiymatiga erishmasdan uzilishi mumkin.

Agar yuklanish tezligi juda kichik bo'lsa, namuna kuchlanish berilgan qiymatiga erishmasdanoq, yuklanish jarayonida ip uzilishi mumkin.

Volterning integral formulalaridan polimerlar uchun o'tkazilgan tajribalarni tahlil qilishda foydalanamiz.

Agar namuna o'zgaruvchi tezlik bilan yuklansa, A.A.Ilyushin, .E.Pobedrya ishlab chiqqan usulga asosan quyidagi ifodani hosil qilamiz:

$$L(t) = [1 - \sigma(t)/E\varepsilon(t)] = \int_0^t Q(x)dx \quad (8)$$

bunda,

$$Q(x) = \int_0^x R(a)da$$

Bunda x – yangi o'zgaruvchi; $0 \leq x \leq t$. $\sigma(t)/E\varepsilon(t)$ nisbat ipning kuchlanish relaksatsiyasini ifodalaydi.

(8) formulani vaqt bo'yicha differensiallab,

$$L^1(t) = 1 - \frac{\sigma(t)}{E\varepsilon(t)} - \frac{\sigma(t)}{Ev\varepsilon} = \int_0^t R(x)dx \quad (9)$$

formulani hosil qilamiz. Shunday qilib, (8) tenglamaning chap tomonida tajriba orqali aniqlanadigan $L(t)$, o'ng tomonida esa yadroni o'z ichiga olgan ta'sir funksiyasi (9) ga kiradigan ifodaga keltiriladi. Agar yadroning ko'rinishi berilgan bo'lsa,

$$\Phi = \sqrt{\frac{1}{N} \int_{i=0}^N \left(\frac{L_i^{1N} - L_i^{1T}}{L_i^{1T}} \right)^2} \cdot 100\% \quad (10)$$

funksional qurib, uni minimizatsiya qilib, tajribaviy qiymatlarning eng yaxshi approksimatsiyasini qurib, yadroning ratsional parametrlari aniqlanadi. Bu formulalardan foydalanib, iplarning mexanik xususiyatlarini aniqlovchi va ta'sir funksiyasiga kiruvchi parametrlari aniqlandi. Kuzatilayotgan Ne 40 paxta ip uchun yuqorida keltirilgan usulni qo'llab, yadro parametrlari uchun quyidagi qiymatlarni hosil qilamiz:

$$T = 10 \text{ sN}; p = 0,64; q = 0,36; A = 0,02065$$

